



TALABA-DIZAYNERLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Omonova Sarvinoz Halim qizi

Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lif boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak dizaynerlarning kasbiy kompetensiyalari shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, bo'lajak dizaynerda shakllantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalar tarkibi va uni shakllantirish metodikasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik va kompetensiya, kasbiy kompetensiya, dizayn, bo'lajak dizaynerlarning kasbiy kompetensiyalari

Oliy kasbiy ta'lifni modernizatsiya qilish sharoitida ta'lif natijalarini baholash zarurati faqat bilim sifati bilan cheklanib qolmaydi, balki kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslanadi. Bu kasbiy faoliyat sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Kasbiy kompetensiyalar mutaxassisning shaxsiy tuzilishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning intellektual, hissiy, samarali-irodaviy sohalari va uning faoliyatining barcha sohalariga hamroh bo'ladi.

Oliy ta'lif muassasasida bo'lajak dizaynerning kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham kompetensiyaviy yondashuvga o'tish jarayoni boshlangan bo'lib, uning jahon ta'lif amaliyotiga kiritilishi badiiy jamoatchilikda noaniq, o'zaro ziddiyatli reaksiyalarga sabab bo'ldi. Ko'plab tadqiqotchilar badiiy ijodni standartlashtirish, uni berilgan me'yorlar, qoidalar, algoritmlar "qolip"iga solib qo'yish xavfi va nomuvofiqligi haqida to'g'ri asos va xavotir bilan yozganlar [1, 2, 3, 4].

Tan olish kerakki, dizaynerlar uchun kasbiy tayyorgarlik mazmunini ma'lum darajada "standartlashtirish" mumkin: ularni rivojlantirmsadan dizaynerning faoliyati prinsipial jihatdan imkonsiz bo'lib chiqadigan asosiy bilim, ko'nikma, malakaga taalluqli bo'lgan qismda. Ammo uning yuqori darajasi - endi boshlang'ich talaba darajasi emas, balki kerakli minimal kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lajak mutaxassis - ko'proq ijodiy erkinlikni, rassomning individual ijodiy uslubini izlashni, o'z dizayn "uslub"ni topishni talab qiladi. Ushbu nuqtai nazardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dizayn ta'lifining dastlabki bosqichida kompetensiyaga asoslangan yondashuv va kasbiy



kompetensiyalarni shakllantirish mutaxassis tayyorlashda zarur va yetarli, ma'lum bir optimal darajaga erishishga imkon beradigan to'liq maqbul ko'rsatma bo'lishi mumkin.

Kasbning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra kasbiy kompetensiyani shakllantirishda bo'lajak dizaynerning uzlusiz ta'lim olishi katta ahamiyatga ega. Dizaynerni kasbiy tayyorlash tizimida bir necha bosqichlar mavjud: professional ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Oliy ta'lim muassasasida talabaning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullarining samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar majmuasiga quyidagilar kiradi:

- talabalarga kasbiy kompetentsiyani namoyon etish imkonini beruvchi ijodiy maydon yaratish;
- o'quv va ijodiy faoliyatda talabalarning shaxsiy pozitsiyasini rivojlantirish;
- kreativlik va mustaqillikni rivojlantirish;
- talabalarni o'qitish mazmuni va metodologiyasiga mahalliy va xorijiy dizayn ta'limining ilg'or ijodiy g'oyalalarini joriy etish, talabaning badiiy mahoratini, mavjud dizayn obyektlarini tanqidiy baholash va yangisini yaratish qobiliyatini rivojlantirish [5].

Bo'lajak dizaynerni kasbiy tayyorlashda talabalar faoliyatini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llaniladi: ma'ruza (dizayner talabalarini tayyorlashda bu shakl alohida holatda kamdan-kam qo'llaniladi, amaliy mashg'ulotlarda alohida blok sifatida kiritiladi), talabalarning mustaqil ishi, ta'lim amaliyotining har xil turlari.

Universitetda bo'lajak dizaynerni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular talabalarga nafaqat bilim olish va ko'nikmalarga ega bo'lism, balki o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, o'zini namoyon qilish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak dizaynerning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish strukturaviy-funksional model ishlab chiqilgan va u quyidagi asosiy bloklardan iborat: strukturaviy-tashkiliy, funksional-maqsadli, mazmunli, faol va mezonli-diagnostik.

Bo'lajak dizaynerni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish samaradorligini va uning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlaydigan aniqlangan pedagogik shartlar majmui quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:



- umumiy (ta'lim jarayonini izchil maqsadli tizim sifatida tashkil etish, uning uzlusizligi, uslubiy, tashkiliy-boshqaruv, kasbiy tayyorgarlik jarayonini kadrlar bilan ta'minlash);
 - xususiy (oliy ta'lim muassasasida dizaynerlik yo'nalishi bo'yicha talabalarning kasbiy malakasini rivojlantirishga ko'proq hissa qo'shadigan ijodiy ta'lim muhitini shakllantirish, oliy ta'lim muassasasida bo'lajak dizaynerni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy va funksional modelini ishlab chiqish va amalga oshirish, ta'lim muassasasi muhitida qulay ijtimoiy-psixologik iqlimni yaratish, universitetda bo'lajak dizaynerga mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirishni monitoring qilish va baholash uchun zarur bo'lgan rivojlanish mezonlari apparati);
 - o'ziga xos shartlar (har bir talaba, bo'lajak dizayner ongiga shaxsni ijtimoiylashtirish mexanizmi sifatida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning dolzarbliji, ustuvorligi, roli, o'rni va amaliy ahamiyati va bilim va ko'nikmalarining ahamiyatini yetkazish).

O.P.Andreyeva o'z tadqiqot ishida bo'lajak dizaynerning kasbiy kompetentliligi strukturasini quyidagi komponentlar yordamida tuzadi:

- loyihibiy-grafik kompetentlilik;
- hissiy-irodaviy kompetentlilik;
- qadriyatli-motivatsion kompetentlilik;
- kompetentlilikning operativ-faoliyatli(kreativ-ijodiy) komponenti;
- ijtimoiy kompetentlilik;
- kommunikativ kompetentlilik;
- ko'p madaniyatli kompetentlilik;
- professional-axloqiy kompetentlilik;
- huquqiy kompetentlilik va b.q.lar.

Tadqiqotchi xulosasida talabaning chizmatasvir sohasida kompetentliligini muhim komponent sifatida ko'rsatib o'tgan [6].

Dizayner faol subyektlardan biri, madaniyat yaratuvchisi hisoblanadi, shuning uchun uning kasbiy faoliyati natijalari uchun mas'uliyati barqaror o'sib boradi. Demak, dizaynerning axloqiy fazilatlari, umumiy madaniyatining kengligi uning ijodi mahsulida muqarrar ravishda namoyon bo'ladi. Ushbu obraz, dizaynerlarning umumiy va kasbiy madaniyati bugungi kunda universitet devorlarida mujassamlangan, kelajakdagi madaniyat ijodkorlarining ustozlari tomonidan shakllantirilgan. Yoshlik va yetuklik, kuch va tajriba uyg'unligida yangi yosh dizaynerlarning kelajakdagi muvaffaqiyati, mahorat cho'qqilari sari yo'l esa mashaqqatli mehnat, o'z ustida doimiy ishlash, kasbiy mahorat va



qobiliyat, ijodiy tajriba asosida yotadi. Ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, kerakli kompetensiyalarni shakllantirish, raqobatbordosh kadr qilib tarbiyalash esa ta'lim muassasining o'z oldiga qo'ygan eng asosiy vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *Бахлова Н.А.* Формирование профессиональных компетенций будущих дизайнеров на основе междисциплинарного диагностического комплекса (в образовательном процессе вуза): дис. ... канд. пед. наук. Орел: ОГУ, 2018. 200 с.
2. *Богачева Л.С.* Компетентность и компетенция как понятийно-терминологическая проблема // Актуальные вопросы современной педагогики. Уфа: Лето, 2012. URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/60/2556/> (дата обращения: 16.10.2021).
3. *Бредихин А.П.* Модернизация высшего художественно-педагогического образования: традиции и инновации // Психолого-педагогический поиск. 2014. № 1 (29). С. 35–50.
4. *Бредихин А.П.* Профессионально-личностное развитие студентов-дизайнеров в образовательной среде вуза // Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития: в 2 кн. Кн. 1 / под ред. Р.С. Сафина, Е.А. Корчагина. Казань, 2018. С. 322–328.
5. *Галкина И.С.* Пути и способы развития профессиональных компетенций будущих дизайнеров в образовательном процессе университета // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. 2021. № 4 (60)
6. *Андреева О.П.* Опытно-экспериментальная работа по формированию профессиональной компетентности специалиста-дизайнера в процессе обучения академическому рисунку в вузе / О.П. Андреева // Вопросы педагогики: история и современность: межвузовский сборник научных трудов. - Москва - Чебоксары: АПСН, 2010. - С. 6 - 9.